



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL TA'LIM OLISHGA YO'NALTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Aripova Mahliyo Norboy qizi  
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat  
pedagogika universiteti magistranti*

Bugungi kunda jamiyatimizda “Yangi O’zbekistonga – yangicha dunyoqarash, yangicha nigoh” bilan qarash shakllanmoqda va buni ko’plab sohalarda bevosita ko’rishimiz mumkin. Ayniqsa, ta’lim jarayoniga bo’lgan e’tibor tobora o’sib bormoqda. So’ngi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablarga mos shaklda tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilyapti. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy qismini oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan ishlar tashkil etmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi sohadagi olib borilayotgan yangidan yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarmoqda. Konsepsiada ta’lim tizimiga O’zbekiston Respublikasida oliy ta’limni isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish vazifasining qo’ylgani bunga yaqqol misol bo’la oladi. Konsepsiada ta’lim tizimining poydevori bo’lmish maktab tizimida ham olib borilishi lozim bo’lgan vazifalar ham o’rin olgan. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo’lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko’plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyati tug’iladi. Shunday ekan, Yangi O’zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o’ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo’llab quvvatlaydi”. Ma’lumki, ish jarayonida inson aqlining faoliyati uning o’zi tomonidan bevosita kuzatilmaydi. Bu faoliyatning nechog’lik



mustaqillagini kuzatish hamda uni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining, maktab va o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchidan ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilishlari va qiziqishlarini bilish talab qilinadi. Bu jarayonni bevosita boshlang'ich ta'lim bilan bog'lab shuni aytish mumkinki, o'quvchi ta'limning har bosqichida o'r ganilayotgan badiiy asar qahramonlarini o'ziga xos tarzda qabul qiladi. Bolaga xos bunday individual xususiyatlarni bilish o'qituvchi ish faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi badiiy asar matni ustida ishlash metodini aniqlashda, asosan, shu jihatlarga tayanishi kerak bo'ladi.

Bugungi o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma'ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari, ta'lim beruvchi o'yinlar, o'quv-munozaralari, ta'lim jarayonidagi rag'batlantirish va tanbeh berish, o'quv materialini muammoli tarzda o'rgatish, muammoli suhbat, tadqiqotlar, induktiv va deduktiv muhokamalar, kitob bilan mustaqil ishslash, ta'limda zamonaviy mashinalardan foydalanish, og'zaki so'rov, yozma ishlar, ijod, dasturlashtirilgan ta'lim, mustaqil nazorat ishlari singari usullar u yoki bu darajada tushunarli. Lekin bugungi pedagogika nafaqat etuk, bilimli mutaxassis, balki sog'lom ma'naviyatli shaxs, barkamol inson shakllantirishni talab qilmoqda. Buning uchun o'qituvchilarga komil insonni tarbiyalash yo'llarini o'rgatish, ularni shunday maqsad uchun zarur bo'lgan metodik qo'llanmalar, pedagogik ashyolar bilan ta'minlash zarur. Sog'lom ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning asosi bo'lgan mustaqil fikrni rivojlantirish haqida gapirilganda, bevosita boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchining fikrlarini uyg'otish, o'quv ishlariga faol qatnashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o'quvchining faolligini butun dars davomida ushlab turish, axloqiy-ma'naviy masalalarni hal etishda o'quvchi tafakkurini ma'lum maqsad sari yo'naltirish, uning aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, bolani mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga rag'batlantirish nazarda tutiladi. Mustaqil ta'lim olishni, izlanishni ichki ehtiyoj darajasiga ko'tarish ko'zda tutiladi. Aytilganlardan ma'lumki, ta'lim olish biror masala echimini izlash, qandaydir savolga javob topish jarayoni. Ammo har qanday savol yoki topshiriq ham fikr mustaqilligi va faolligini talab qilavermaydi. Inson tafakkuri mustaqilligini faollashtirishning birinchi sharti uning oldiga chigal masala qo'yishdir. Masalaning o'quvchi oldiga qanday shaklda qo'yilishi, uning echimiga bolaning qiziqishi, asosiy muammoni anglashi juda muhim. Inson tafakkuri hamisha ma'lum maqsadga qaratiladi. Maqsadni anglash bilan tafakkur jarayonining ixtiyoriy zo'riqishi, ya'ni insonning oldiga qo'yilgan maqsadga erishish istagi qancha kuchli bo'lsa, echim



shuncha ta'minlangan bo'ladi. Bu psixologiya fanida o'z isbotini topgan. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchining o'z oldiga qo'yilgan vazifani anglashi va o'qish maqsadini tushunishi o'qituvchi tomonidan dars maqsadining e'lon qilinishidan boshlanadi. Ya'ni, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga o'rgatish yo'lidagi har bir adabiyot darsi uning maqsadini o'quvchilarga e'lon qilishdan boshlanishi kerak. Ma'lumki, bugungi ta'lim amaliyotida darsning maqsadini o'quvchilarga e'lon qilish o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham erish tuyuladi. Dars maqsadining o'qituvchi tomonidan e'lon qilinishi o'quvchilarni sergaklantiradi, fikrlarini bir maqsad atrofida jamlashga, ularga ma'lum yo'nalish berishga ko'maklashadi. Darsning maqsadi o'ziga tortadigan bo'lishi uchun uning muhimligiga o'quvchi ishonishi, bu darsda o'zining ma'lum bir ehtiyoji qondirilishini anglashi kerak. SHunda bilim olish jarayoni har bir bola uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Bu faoliyat, o'z navbatida, bolaning tafakkurining mustaqilligi darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Qo'yilgan masala o'quvchining nazarida salmoq kasb etishi uchun bola shunday qiyinchiliklarga ro'baro' qilinishi kerakki, unda ayni masalani hal etishda zarur bo'ladigan yangi bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyoj uyg'onsin. Ma'lumki, ta'lim jarayonini amalga oshiruvchi o'quv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha bezovta bo'lish, ko'ngil hayajonlari, o'zgani tuyish, quvonch, nafrat, hayrat singari tuyg'ular bilan bog'liq. E'tibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsnинг chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qo'shilganda u faollashadi, kerak bo'lgan intellektual marranining egallanishi ta'minlanadi. Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda hamma narsaga erishish uchun his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg'ota bilihsda. Hissiy bezovtaliklar asosan hayrat orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlarining tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi. Boshlang'ich sinf darslarida emotsiyonal holatlarni vujudga keltirishda o'qituvchi nutqining hissiyotga yo'g'rilganligi, tiniqligi, badiyliги ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu o'ta samimiyl bo'lishi kerak. Busiz o'quvchining nutqi foydali axborotgina bo'lib, o'quvchi faoliyatiga hissiy ta'sir ko'rsatolmaydi. SHu bilan birga, darsning qiziqarlilagini ta'minlashda bilishdan zavqlanish hissining o'rni ham katta. Hissiyot o'quvchini muammoning ichiga kirishga undaydi. Ko'ngil ochish hislari bilan bilim olishdagi hislarning farqi shunda. O'quvchining intellektual faolligi biror o'quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda



ishtirok etishi va o‘z-o‘zini nazorat qilishida (aqliy operatsiyalarni bajarishda zarur usullarni qo‘llash, tafakkur yo‘llarini qidirishda) ko‘zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirishni S. Juykov o‘qituvchi, darslik va boshqa o‘quv ashyolari ta’sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo‘yishga, ularning o‘quvchi tomonidan bajarilishida qoliplardan voz kechib, masalalarni o‘z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etishida ko‘radi. Uning fikricha, o‘quvchi aqliy faoliyati mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog‘liq. Bunday vaziyatda ta’lim tizimini qayta qurish, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalardan yangicha foydalanish, o‘rganilgan fakt va hodisalarni solishtira bilihni talab etadi. Metodlarni tasniflashda ular yordamida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni zo‘rlab singdirishga emas, balki ularning inson tafakkuri imkoniyatlarini hisobga olishi, fakt va tajribaga asoslanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Bir qator pedagog va psixologlar tomonidan ta’lim metodlari orasidan: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlarning samarali ekanligi ta’kidlangan. Boshlang’ich sinf darslarida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishini ta’minlovchi metodlar orasida muammoli ta’lim metodi muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun bu metodga tadqiqotning alohida bir bobi ajratildi. Quyida o‘quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatishda qo‘llaniladigan mantiqiy metodlarning suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv turlari va ularning xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Suhbat metodi o‘quvchi tafakkuri mustaqilligini ta’minlashda muammoli ta’limdan keyingi asosiy metod hisoblanadi. Metodika ilmida suhbatga bag‘ishlangan anchagina ishlar mavjud. Jumladan, A. Tojievning “Boshlang’ich sinf darslarida suhbat” qo‘llanmasida boshlang’ich ta’lim samaradorligini ta’minlashda suhbat metodining o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Lekin bu ishlarda ta’limning oldiga boshqacha maqsadlar qo‘yilgan. Bugun ta’limda yangi bilimlar, ma’naviy sifatlarning “kashf etilishi” o‘quvchilar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Bunday qayta kashfiyotlar asar ustida ishlash davomida o‘qituvchi va o‘quvchining jonli muloqotida, tom ma’nodagi izlanuvchi suhbatlarda amalga oshadi. Darsda yaxshi tashkil etilgan suhbatning ahamiyati shundaki, u yosh kitobxonning o‘qiganlari haqida gaplashish, unga o‘z munosabatini bildirish, o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashish kabi ehtiyojlarini qondiradi. Badiiy asarni har kim o‘z holicha, o‘z darajasida qabul qiladi. Suhbatda ishtirok etgan o‘quvchi o‘z fikrlarini muhokama qiladi, uni so‘zlar bilan shakllantiradi. Bu fikrning aniq va muayyan maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Suhbat jarayonida o‘quvchida o‘z fikrini



aytish, uning to‘g‘riligiga hamsuhbatlarini ishontirish ehtiyoji tug‘iladi. O‘qituvchi yoki o‘rtoqlarining talablari asosida fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko‘nikmasi shakllanadi, bola qochirimlar qilishga va e’tirozlar bildirishga odatlanadi. Suhbat hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o‘rgatadi, o‘quvchida o‘z bilimini chuqurlashtirishga ehtiyoj tug‘diradi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi. Adabiy asarlarni o‘rganish darslarida tashkil qilingan suhbatlar o‘quvchini nafaqat ma’lum bilimlar doirasi bilan boyitadi, tarbiyalaydi, balki aqliy faoliyat asoslarini ham o‘rgatadi. Badiiy asarlarni o‘rganishning barcha bosqichlarida suhbat o‘zida ko‘p narsani qamrab oladigan metod hisoblanadi. Chunki u xotirani, kuzatuvchanlikni, bilish jarayonini, tasavvur va hissiyotni faollashtirishga imkon beradi. Suhbat davomida har bir o‘quvchining individual ishlash sur’ati shakllanadi. Boshlang‘ich sinf darslarida to‘g‘ri tashkil etilgan suhbatlarda bitta masala bo‘yicha bir nechta o‘quvchi, ba’zan butun sinf fikr aytadi. Buning muammoli metoddan farqi shundaki, suhbatda bolaning oldiga muammo qo‘yilmaydi. O‘qituvchi tomonidan bitta murakkabroq, bolalarni o‘ylashga, munosabat bildirishga undaydigan mavzu o‘rtaga tashlanadi va suhbat asnosida shu masala ustida birgalikda ishlanadi. O‘qituvchi sinfnинг faoliyatini kuzata borib, uni yo‘naltiradi, shu bilan birga o‘quvchilarining o‘zлари ishlashlari uchun sharoit yaratadi. Suhbatning vazifasini belgilab, unga tayyorlanish davomida o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga vazifa qo‘yib, masalani mustaqil ravishda, to‘g‘ri hal etishga yordam beradigan savollar tuzadi. Suhbat metodi boshlang‘ich ta’limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o‘zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo‘l keladi. O‘quvchi tafakkuri mustaqillagini ta’minalashga qaratilgan suhbatning asosiy talablaridan biri – savollarning shakl tomonidan ham, mazmun jihatidan ham har xil bo‘lishi. O‘quvchiga bir xil narsa bilan uzoq shug‘ullanish o‘ta salbiy ta’sir qiladi. O‘quvchini o‘ylantiradigan, mustaqil ravishda mulohaza yuritishga undaydigan savollarni tayyorlayotganda o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarining rivojlanganlik, ijodkorlik darajasini ham nazarda tutishi lozim. Bundan tashqari, suhbat uchun tuzilgan savollar o‘quvchi ruhiy faoliyatining xilma-xilligini ham ta’minalashi kerak. O‘quvchi savolga javob berish uchun mustaqil ravishda o‘ylanishi, eslashi, tasavvur qilishi, izlanishi lozim. Suhbat uchun tuzilgan savollar orasida kuchli o‘zaro mantiqiy aloqa bo‘lishi kerak. Savol ko‘magida asardan o‘quvchi tomonidan kashf qilingan mantiq bilan asar muallifi fikrlari murakkab yaxlitlikni tashkil etishiga jiddiy e’tibor qaratilishi lozim. Badiiy asar o‘quvchi uchun hayotni, odamni bilish, shu asosda o‘zligini anglash va baholash o‘lchoviga aylanganda chinakamiga qadrli



bo‘ladi. O‘quvchilarning suhbatlar jarayonida hayot bilan uzviy aloqasini ta’minlash uchun asar ustida ishslash jarayoniga o‘qituvchi bolalarning kitobxonlik va hayotiy tajribasi bilan bog‘liq savollarni ham o‘rtaga tashlashi lozim. Bunday savollarning yo‘nalishi nafaqat asar matni, balki o‘quvchi xarakteri va qiziqishlariga ham bog‘liq. Suhbat davomida o‘quvchi asardagi yoki u haqidagi faktlarni aniq bilgandagina o‘z qarashlarini, ular haqidagi mulohazalarini aytishi mumkin. Lekin ko‘pincha, bunday vaziyatlarda bilimning, dalilning o‘zi kamlik qiladi. O‘quvchi ularni mustaqil ravishda tahlil qila bilishi, o‘ylashi, xulosalar chiqara olishi kerak bo‘ladi. Asar matni yuzasidan tuzilib, izlanishga undaydigan savollar ham shunga qaratilishi lozim. Yaxshi savol ahamiyatli, keng qamrovli, o‘ylashga, his qilishga, izlanishga majbur etadigan, kashfiyotlar qiladigan, tasavvur uyg‘otadigan bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy hazratlari: «Yaxshi savol yarim bilimdir», - deb bejiz aytmaganlar. Asar matni bo‘yicha o‘qituvchining o‘quvchilar oldiga qo‘yadigan evristik savollari, topshiriqlari bolalarning qiziqishlari, ularning umumiy psixologik va intellektual o‘ziga xosliklariga mos bo‘lishi zarur. SHuningdek, ularda qisman adabiyotshunoslik darajasi ham aks etishi lozim. Badiiy asar dastlab o‘qilganda qanday tushunilganligi bilan tahlildan so‘ng qay darajada o‘zlashtirilganligini tekshirish uchun tuzilgan savollar ham boshlang‘ich ta’lim amaliyotida katta o‘rin tutadi. Bunday savollar o‘quvchida mustaqil fikrni shakllantirishda katta samaraga olib keladi.

**Xulosa:** Yuqori sinflarda mualliflar timsolini tushunish uchun har xil shakldagi suhbatlarning soni ham, doirasi ham kengayadi. O‘quvchilar ko‘p asarlar orasidan ayni adibning ovozi, uslubi, shaxsini ajrata olishi, unga yaqinlashishi, uni his qilishi lozim. Lirik asar yuzasidan tashkil qilingan suhbatlar qaysidir o‘rinlarda muallif timsolidagi, uning fikr va tuyg‘ulari olami haqidagi suhbatlarga buriladi. Suhbatlar o‘quvchini qiziqtirgandagina uning shaxsiyati, ma’naviyati uchun samarali bo‘ladi. Odatda, bolalarga tushunarli bo‘lgani holda javob berish bir qadar qiyinchilik tug‘diradigan savollar qiziqarli tuyuladi. Ular – o‘quvchi uchun o‘ziga xos topishmoq. O‘quvchilarda emotsional holat hosil qilishda, eng asosiy yumush muhokamani bog‘lab turadigan boshlang‘ich savolni topish. O‘qituvchi bunday savolni mazkur badiiy asarning o‘zidan topishi kerak.

### Foydalaniman adabiyotlar:

1. Абдуқодиров А.А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.



2. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялар воситасида ташкил этиш: пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2004. – 160 б.
3. Адизов Б.Р. Ўқувчиларнинг билув фаолияти. // “Педагогик таълим” журнали. –2002. 3-сон. -1-12-б.
4. Аловуддинова Н.Г. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш қўникмасини шакллантириш методикаси: пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: 2007. – 135 б.
5. Асадов Й.М. Таълимда компетенциявий ёндашув //Maktab va hayot. – Тошкент, 2014. №1. –8-б.
6. Ахмедова Г.М. Ўзбек тили дарсларида ўқувчилар нутқини ясама сўзлар билан бойитишнинг методик асослари: пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2007. – 162 б.